

## O'ZBEKISTONDA SOLIQ MASLAHATI INSTITUTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA HOZIRGI HOLATI

Zargarov Sanjarbek Xamza o'g'li

Bank-molya akademiyasi,

Soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20828907>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Ozbekistonda soliq maslahati institutini rivojlanishining bosqichlari, shuningdek, xorijiy olimlarning soliq maslahatiga oid faoliyatga bergan ta'riflari, hozirda O'zbekistondagi huquqiy holati tahlil qilingan va soliq maslahatchiligini rivojlantirish bo'yicha aniq takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq maslahati, soliq maslahati instituti, soliq maslahatchilari palatasi, soliq maslahatchisi xulosasi, soliqlarning qonuniy optimizatsiyasi.

**Kirish:** Bozor iqtisodiyotida soliqlar iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy omil hisoblanadi. Demak, bozor iqtisodiyotiga o'tgan har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi unda amalga oshirilayotgan soliq siyosatiga bog'liq. Mamlakatimizda iqtisodiy va sud-huquq sohasidagi islohotlar, soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni hisoblash va undirish, soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha soliq bilan bog'liq nizolarda vakillik qilish bo'yicha mutaxassislar tobora rivojlanib bormoqda - soliq maslahatchilari tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, soliq maslahati instituti iqtisodiyotda yangi xizmat ko'rsatish sohasi bo'lganligi sababli, bu borada ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar juda kam amalga oshirilgan. Aholiga maslahat xizmatlari ko'rsatish mavzulariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ularning ayrim jihatlari yoritilgan, xolos. Soliq maslahati institutining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, ular faoliyatidagi mavjud muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish soliq siyosatining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Rossiyalik olim Kirina Lyudmila Sergeevna o'zining "Rossiya Federatsiyasida soliq maslahati xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy ishida Rossiya Federatsiyasida soliq maslahati institutini tashkil etishning huquqiy asoslari va soliq maslahatchisi maqomini olish uchun sertifikatlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirish, uning mavqeini yanada oshirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surgan [1].

Drosko Ivan Viktorovich o'zining "Rossiya Federatsiyasida soliq maslahati xizmatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi" nomli ilmiy ishida soliq maslahati institutining paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ushbu xizmat turini takomillashtirishni o'rgangan bo'lsa, yana bir rossiyalik olim Denisov Nikolay Nikolayevich soliq maslahati riskini kamaytirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan va ushbu yo'nalishda soliqqa tortish masalasida Rossiya soliq maslahati institutining pozitsiyasini o'rgangan [2].

Friz Stilning fikricha, ... "maslahatchi faqat bir yoki bir nechta masala bo'yicha maslahat yoki yordam beradi. Ammo u buni to'g'ridan to'g'ri hal qilmaydi" [4].

D.G.Chernikning ta'rifiga ko'ra, "soliq maslahati auditorlik yoki yuridik xizmatga o'xshash mustaqil faoliyat turi, lekin u o'z mohiyati va ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha butunlay boshqa xizmat turidir. Soliq maslahati xizmati shakli va huquqiy mazmuni jihatidan tejamkor bo'lib, boshqa maslahat xizmatlari va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan xizmatlardan farq qiluvchi mustaqil tadbirkorlik faoliyati turidir" [5].

N.N.Bashkirova va Ye.B.Sugrobovalarning ta'kidlashicha, "soliq maslahati soliq to'lovchilar, soliq agentlari va to'lovlarni amalga oshirishga majbur bo'lgan boshqa shaxslar uchun soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlarni to'g'ri hisoblash" pullik xizmat turidir"[1].

### **O'zbekistonda soliq maslahati institutining rivojlanish bosqichlari.**

"Soliq maslahati to'g'risida"gi qonun ilk bor 21.09.2006 yilda O'RQ-55 bilan qabul qilingan. Ushbu qonun qabul qilinishining asosiy tashabbuskori - Ushbu qonunni ishlab chiqish tashabbuskori va mafkurachisi raisning birinchi o'rinbosari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Gadoyev Erkin Fayziyevich hisoblanadi.

Aslida qonun ishlab chiqilishidan oldin ham soliq maslahatchiligi institutini shakllantirish bo'yicha juda ko'p ishlar qilingan. Jumaladan:

- *Iyun 1997 yil. Germaniya.* Mutaxassislar guruhi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi rahbarligi ostida "Daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarga yordam berish jamiyati" (Soliq maslahatchilari palatasi muqobili) faoliyati bilan tanishish uchun borishadi. 1998 yilda olingan tajriba yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Respublika axborot-maslahat markazi tashkil etiladi;
- 1999 yil Toshkent shahrida ilk bor auditorlar, yuristlar, davlat organlari va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida seminarlar va davra suhbatlari tashkil etildi. Ushbu suhbatda mustaqil soliq maslahat institutini tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Shu bilan bir vaqtda ommaviy axborot vositalarida soliq maslahatini rivojlantirishning kontseptual asosini tashkil etuvchi maqolalar va axborot materiallarini chop etishadi;
- 2003 yilda Germaniyadan kelgan mutaxassislar guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va professional hamjamiyat vakillari texnik loyiha orqali o'qitildi. Dastur davomida ular "Daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarga yordam berish jamiyati" faoliyati bilan tanishdilar;
- 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli "Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi farmon bilan tegishli vazirlik va idoralarga "soliq maslahati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish topshirildi. (Qonun loyihasini tayyorlash bo'yicha ishchi guruh tarkibiga Soliq organlari va Moliya vazirligi vakillari kiritildi, jumladan — Bahramov Rustam Asqarovich va Nabijonov Bahodir Saytjonovich, Golisheva Irina Xristosovna, Minibayeva Tatyana Mixaylovna, Artikov Xudoybergan Azimboyevich shuningdek Soliq maslahatchilari palatasi vakili — Irina Aronovna);
- 21.09.2006 yil "Soliq maslahati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi;
- 30.09.2020 yilda PQ-4846 son qaror bilan yangi tahrirdagi "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berildi;
- 04.08.2022 yilda O'RQ-787 son bilan "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida" qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Soliq maslahatchiligi institutining rivojlanishi 05.11.2022 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida" Qonun (eski tahrirdagisi "Soliq maslahati to'g'risida" Qonun) hamda 30.09.2020 yildagi "Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4846-son qaror bilan o'z cho'qqisiga chiqdi.

Jumladan ushbu Qonun va qaror bilan soliq maslahatchilariga quyidagi vakolatlar berildi:

- “Tavakkalchilikni tahlil qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi vositasida aniqlanadigan, yillik aylanmasi oxirgi uch yil mobaynida 10 milliard soʻmdan oshmagan hamda soliq xavfi darajasi oʻrta boʻlgan soliq toʻlovchilar ixtiyoriy tugatilganda xulosa berish huquqiga ega boʻlgan soliq maslahatchilari tashkilotlari roʻyxatiga kiritilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari tashkilotlarining soliqlar boʻyicha xulosalari soliq organlari tomonidan tan olinishi;
- Soliq maslahatchilari davlat soliq va bojxona xizmati organlari bilan munosabatlarda soliq toʻlovchining manfaatlarini ifodalashiga vakolat;
- soliq hisobotini soliq toʻlovchi nomidan soliq toʻlovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etish vakolati;
- davlat soliq xizmati organlarining talabnomalarida koʻrsatilgan, aniqlangan tafovutlarning asosnomasi sifatida xulosalarni soliq toʻlovchi nomidan davlat soliq xizmati organiga taqdim etish boʻyicha qoʻshimcha huquqlar berildi.

### **Takliflar**

Soliq maslahatchilariga 30.09.2020 yildagi PQ-4846 son qaror bilan berilgan, - “Tavakkalchilikni tahlil qilish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi vositasida aniqlanadigan, yillik aylanmasi oxirgi uch yil mobaynida 10 milliard soʻmdan oshmagan hamda soliq xavfi darajasi oʻrta boʻlgan soliq toʻlovchilar ixtiyoriy tugatilganda xulosa berish huquqi minimal miqdorini oshirish bugungi kunda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ushbu qaror qabul qilingan 2020 yilda BHM 223 000 soʻm boʻlgan boʻlib, 22.06.2026 yil holatiga bu miqdor 412 000 soʻm qilib belgilangan. Taklif: Xulosa summasini BHM bilan bogʻlash va BHMning 50 000 barobari etib belgilash (20 600 000 000 soʻm). Shuningdek, soliq xavfi yuqori boʻlgan korxonalar ham ixtiyoriy tugatilganda xulosa taqdim etish vakolatini berish.

### **Xulosa:**

Oʻzbekiston Respublikasining "Soliq maslahati toʻgʻrisida"gi qonuniga muvofiq tashkil etilgan yangi demokratik institutni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani taʼminlash yetarli emas. Balki sohani rivojlantirish uchun uni malakali mutaxassislar bilan taʼminlash kerakdir. Sertifikatlangan buxgalterlar, iqtisodchilar, auditorlar va yuristlar tomonidan soliq maslahatchilarini kasbiy tayyorlash tizimini tashkil etish zarur. Soliq maslahatchisi maqomiga ega boʻlish uchun har bir mutaxassis yuqorida qayd etilgan kasbga xos nazariy bilim va amaliy koʻnikmalar hamda bularning barchasidan soliq maslahatchiligining koʻp qirrali faoliyatida toʻliq foydalana olishi lozim, faqat soliqlar boʻyicha bilim va tajriba bilan cheklanmay.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Kirina L.S. Rossiya Federatsiyasida soliq maslahati xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi. – M.: RGB, 2006.
2. Denisov N.N. Snijeniye riskov nalogovogo konsultirovaniya. – M.: RGB, 2012.
3. Skott A. Kak upravlyat peremenami: Change Management glazami spetsialisti, Harvard Business Review 2003, 108-109 s.
4. Greyner Larri Ye. Tashkiliy oʻzgarishlar sxemalari Harvard Business Review, 2010-yil may-iyun, 119-120 s.
5. "Rossiyskaya biznes-gazeta" 581-son 2006-yil 21-noyabr. 14-bet;
6. 30.09.2020 yilda PQ-4846 son qaror, manbaa: lex.uz/docs/-5026347;

7. 04.08.2022 yildagi O'RQ-787-sonli "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida" qonun,  
manbaa: [lex.uz/docs/-6141486](http://lex.uz/docs/-6141486).